

## O‘QUVCHILARNI TA’LIM JARAYONIGA JALB QILISHMI YOXUD TA’LIMNI O‘QUVCHILAR SAVIYASIGA MOSLASHTIRISH?!

*Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti*

*Boshlang‘ich ta’lim fakulteti*

*Maktabgacha va Boshlang‘ich ta’limda*

*xorijiy til yo‘nalishi*

***Jalgashova Nasiba Ergash qizi***

*e-mail: [nasibaergashovna2004@gmail.com](mailto:nasibaergashovna2004@gmail.com)*

*Mamasoliyeva Mohichehra Ulug‘bek qizi*

*e-mail:*

*mamasoliyevamoxchera@gmail.com*

*Ilmiy rahbar: Xudoyqulova Fazilat Bo‘riyevna*

*e-mail: [fazilatxudaykulova@gmail.com](mailto:fazilatxudaykulova@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ta’lim jarayonida mamlakatimiz va dunyo bo‘ylab bo‘layotgan so‘nggi islohotlar, inson kapitalini rivojlantirish va kreativ yosh avlodni tarbiyalash, hayotning ma’lum jabhalarda ”virtual hayot“ tushunchasi, axborot almashinuvi jarayonida yoshlarga internet madaniyatidan oqilona foydalanish usullari, xususan, ta’lim jarayonini XXI asr o‘quvchisiga moslashtirishga oid bir qator usullar haqida bayon qilingan.

**Kalit so‘zlar:** Inson kapitali, ta’lim tizimi, virtual hayot, kiberxavfsizlik, chalg‘ituvchi omillar, internet madaniyati, zamoaviy usullar

Bugun Yangi O‘zbekiston hayotining deyarli barcha tarmoqlari turli xil islohotlar maydoniga aylantirilgan. Aytish joizki, ushbu jarayon eng dolzarb va muhim masalalarni o‘z ichiga olgan ta’lim tizimini ham chetlab o‘tayotgani yo‘q. So‘nggi yillarda ta’lim tizimini yana bir pog‘ona yuqoriga ildamlatish va uni zamonaviy yo‘singa aylantirish bo‘yicha bir qator amaliy ishlar sodir bo‘layotgani ham hech biringizga sir emas.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek: “Inson kapitalini rivojlantirish va kreativ yosh avlodni tarbiyalash - O‘zbekiston o‘z oldiga qo‘ygan strategik vazifalardan biridir”

Biz hamma uchun ochiq va sifatli ta’limni kambag‘allikka barham berish, xalq farovonligini oshirish va barqaror iqtisodiy o‘sishga erishishning eng samarali omili, deb bilamiz.

Mamlakatimiz oxirgi yillarda bu borada katta tajriba to‘pladi - ta’lim tizimi tubdan o‘zgaroqda. O‘tgan olti yilda maktabgacha ta’limdagi qamrov 21 foizdan 70 foizga, oliy ta’limda esa 9 foizdan 38 foizga yetdi. 2030 yilga qadar har bir bolaning bog‘chaga

qatnashi, maktabni bitirayotgan har ikki o'quvchining biri esa oliygohda o'qishi uchun imkoniyat yaratiladi.”

Darhaqiqat, hozirgi davr axborot texnologiyalari asri deb nom olgan bir paytda, hayotning har xil jabhalarida – sanoat, iqtisodiyot, xalqaro aloqalar, hunarmandchilik va boshqa ko'plab sohalarda, xususan, ta'lim tizimida yuksak taraqqiyot barpo etish maqsadida yangiliklar isloh qilish, innovatsion texnologiyalar olib kirish bugungi kunning eng muhim va dolzarb mavzusiga aylanib ulgurdi. Yana shuni ta'kidlash kerakki, ayni paytda butun jahon miqyosida axborot almashinuv jarayoni biz o'ylaganimizdan tezroq sur'atlarda o'sib bormoqda. Bu esa ta'lim sohasini ham o'zining katta qarmoviga qurshab olayotganini hammaga ma'lum.

Ta'kidlash joizki, butun dunyo bo'ylab so'nggi yillarda rivojlanib borayotgan "virtual hayot" tushunchasi olamga, jumladan, odamlar orasidagi o'zaro munosabatlarga, hayot tarzida, kundalik odatlarda singib ketishga ulgurdi. Hayot tarzining esa o'z-o'zidan ta'limga, ish jarayoniga uzviy bog'liqdir. Aynan mana shu bog'liqliklar ta'siri natijasida ta'lim oluvchi o'smir yoshlarga, ularning ta'lim jarayoniga ijobiy yoxud salbiy ta'sirini ko'rsatib kelmoqda.

Bundan kelib chiqadiki, bugun ijtimoiy tarmoqlardagi qulayliklar, o'qitish va o'rganish imkoniyatlariga debocha ochib berayotgan imtiyozlar kiberxavfsizlik bilan bog'liq muammolar, yuzma-yuz muloqotning sustlashuviga va yoki aksincha chalg'ituvchi omillarning ko'payishiga olib kelmayaptimi?!

Xususan, datereportal.com saytining xabar berishicha, O'zbekiston aholisining yosh guruhlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha keltirilgan:

11,2 foizi 0 yoshdan 4 yoshgacha; 15,4 foizi 5 yoshdan 12 yoshgacha .

8,3 foizi 13 yoshdan 17 yoshgacha bo'lganlardir .

10,3 foizi 18 yoshdan 24 yoshgacha bo'lganlardir .

17,2 foizi 25 yoshdan 34 yoshgacha bo'lganlardir .

14,4 foizi 35 yoshdan 44 yoshgacha bo'lganlardir .

10,3 foizi 45 yoshdan 54 yoshgacha .

7,8 foizi 55 yoshdan 64 yoshgacha .

5,2 foizi 65 va undan yuqori yoshdagilardir .

2023-yil yanvar oyidagi ko'rsatkichlarga nazar tashlanganda, O'zbekistonda 26,74 million internet foydalanuvchisi bo'lgan .

2023-yil boshida esa ushbu raqamlar O'zbekistonda internetdan foydalanish darajasi jami aholining 76,6 foizini tashkil qilishini ko'rsatdi.

Kepios tahliliga ko'ra 2022-2023 yillarda O'zbekistonda internet foydalanuvchilari 421 mingga (+1,6 foiz) oshgan .Umuman olganda, bu statistikalar O'zbekiston aholisining kam foizi ya'ni 23.4 foizigina "oflayn" rejimda turibdi.

Xo'sh, ushbu statistikalar milliy ta'lim tizimiga ijobiy o'zgarishlar olib kirishi mumkin bo'lgan ilovalar yoki saytlar uchun xizmat qilayaptimi yoki qo'shtirnoq ichidagi qaysidir blogerning obunachilarini ko'paytirishga xizmat qilayaptimi?

Ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston aholisining eng katta qismi Instagram ijtimoiy tarmog'i foydalanuvchisi hisoblanadi. Bugungi kunda ushbu tarmoqdan foydalanuvchilar soni 4,8 milliondan ziyod bo'lib, ularning 34,4 foizini ayollar tashkil etadi. Bundan tashqari, foydalanuvchilarning asosiy qismini yoshlar tashkil etadi.

Instagram, Tik tok, Facebook kabi ilovalar foydalanuvchisi sifatida aytishimiz mumkinki, bu kabi ilovalarga 5daqiqaga kirib 1soatda arang chiqib ketayotganlar ham kam emas. Inson miyasi ma'lumotlarni tez qabul qilib oladi, bu kabi ijtimoiy tarmoqlar esa har xil ma'lumotlarga to'lib-toshgan. Aynan shu boisdan ham bizda o'quvchilarning diqqat e'tiborini ta'lim jarayoniga qaratish qiyin. Ana endi savol tug'iladi? Nega o'quvchilarni ta'lim jarayoniga emas ta'lim jarayonini o'quvchilarga moslashtira olmaydi? Deylik, darslarni aynan mana shunday mashhur tarmoqlar bilan zamonaviy tarzda o'tishni boshlang'ich sinflardan boshlansa, bir o'q bilan ikki quyovni urgan bo'lmaydimi? Yoxud aniqroq qilib aytganda, o'quvchilarni darsga noan'anaviy uslubda jalb qilish bilan birgalikda ta'lim oluvchi yoshlarimizning dunyoga mashhur yoshlar bilan teng saviyada o'sishiga erishish mumkin-ku!

Masalan, darslarni baholash jarayonlarida o'quvchilarning fikrlarini aniqroq va teranroq tushunish maqsadida, Telegram messengeridagi yoki boshqa ilovalardagi anonim izohlardan foydalanish orqali o'quvchilar orasida bir-birining fikrini hurmat qilishga va ularni adolatli qaror chiqarishga undash mumkin.

Bunday anonim usullardan faqat bu jabhalarda emas o'quvchilarning ruhiy holatini aniqlashtirishda ham foydalanish mumkin. Ya'ni barchaga ayonki, endigina ulg'ayib kelayotgan yosh o'smirlar o'z fikrlarini erkin ifodalashda boshqalarga qaraganda, biroz ko'proq muammolarga duch kelishadi. Ularning yoshida turli xil gormonlar ta'sirida qiziqqonlik, agressivlik, dangasalik va ko'plab yot g'oyalarga ergashishga moyillik yuqoriroq bo'ladi. Bunday anonim chatlarda esa xabar egasining kontakti ko'rinmagan holda bemalol muloqot qilish imkoniyatiga erisha olamiz.

Binobarin, biz yuqoridagi fikrlarga binoan, yoshlarga mos ravishda, zamonaviy usullardan foydalanadigan bo'lsak maqsadga ularni yanada yaxshiroq tushunish mumkin.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. O'zbekistonda oliy ta'lim. №3 2023-yil ISSN2181-3051 (ilmiy, o'quv-uslubiy, tahliliy jurnal).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi 78-sessiyasidagi nutqi.
3. Ta'lim sohasida internet-texnologiyalaridan foydalanish. – Mediakompetentlikni rivojlantirish texnologiyasi

<https://digitalmediakompitentlik.wordpress.com/talim-soxasida-internet-texnologiyalaridan-foydalanish/>

4. Ta'lim tizimi va yangicha yondashuvlar <https://yuz.uz/uz/news/talim-tizimi-va-yangicha-yondashuvlar>
5. Digital 2023: Uzbekistan — DataReportal – Global Digital Insights
6. <https://datareportal.com/reports/digital-2023-uzbekistan>
7. Social Media · Media Use in the Middle East, 2019
8. <https://www.mideastmedia.org/survey/2019/chapter/social-media/>

